



Nafosat JUMANIYOZOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: jumaniyozovanafosat25@gmail.com

BuxDU professori, PhD N.Dilova taqrizi asosida

MODERN APPROACHES TO WORKING WITH FAIRY TALE TEXTS

Annotation

This article analyzes modern approaches to working with literary texts, particularly folk tales. It explores the potential of using fairy tales for moral and aesthetic education, as well as for developing students' critical thinking and creative text engagement skills based on theoretical and practical foundations. A methodological model for working with fairy tales is proposed, drawing on practical sessions with students of the "Primary Education" program at Urgench State Pedagogical Institute. The model integrates PIRLS assessment standards, interactive methods (cluster, insert, case-study, etc.), and creative tasks.

Key words: Fairy tale text, modern pedagogical approaches, moral and aesthetic education, text analysis methodology, PIRLS program, interactive methods, reading literacy, creative tasks, primary education, folk oral literature.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАБОТЕ С ТЕКСТАМИ СКАЗОК

Аннотация

В данной статье анализируются современные подходы к работе с художественными текстами, в частности с народными сказками. Рассматриваются возможности нравственно-эстетического воспитания учащихся через сказки, а также формирования у них навыков самостоятельного мышления и творческой работы с текстом на теоретической и практической основе. На основе практических занятий со студентами направления «Начальное образование» Ургенчского государственного педагогического института предлагается методическая модель работы со сказками с применением требований системы PIRLS, интерактивных методов (кластер, инсерт, кейс-стади и др.) и творческих заданий.

Ключевые слова: Сказочный текст, современные педагогические подходы, нравственно-эстетическое воспитание, методика работы с текстом, программа PIRLS, интерактивные методы, читательская грамотность, творческие задания, начальное образование, народное устное творчество.

ERTAK MATNI USTIDA ISHLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy matnlar, xususan xalq ertaklari asosida o'quvchilar bilan ishlashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Ertak matnlari vositasida axloqiy-estetik tarbiya berish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va matn bilan ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy asosda ochib berilgan. Tadqiqotda Urganch davlat pedagogika institutining "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan olib borilgan amaliy mashg'ulotlar asosida PIRLS baholash tizimi talablari, interfaol metodlar (klaster, insert, keys-stadi va boshqalar) hamda ijodiy topshiriqlar asosida ertak ustida ishlashning metodik modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Ertak matni, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axloqiy-estetik tarbiya, matn bilan ishlash metodikasi, PIRLS dasturi, interfaol metodlar, o'qish savodxonligi, ijodiy topshiriqlar, boshlang'ich ta'lim, xalq og'zaki ijodi.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida sifat va samaradorlikni oshirish, yosh avlodning mustaqil fikrlash, estetik tafakkurga ega, ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bu borada badiiy adabiyot, xususan ertak matnlarining o'rni beqiyosdir. Ertaklar xalq og'zaki ijodining qadimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega janri bo'lib, unda hayotiy haqiqat, ezgulik va yovuzlik to'qnashuvi, axloqiy mezonlar obrazlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda va pedagogik ta'lim yo'nalishlarida ertak matnlari bilan ishlash orqali o'quvchilar va talabalarda estetik did, axloqiy mezonlar, obrazli fikrlash va ifodali nutq ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "... yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash – bizning eng muhim va dolzarb vazifamizdir"[1]. Ushbu fikr zahirida ta'lim-tarbiya jarayonida badiiy asarlarning, xususan ertaklarning tutgan o'rni hamda ularni o'qitishda samarali usullarni ishlab chiqish zaruriyati mujassam.

Zamonaviy ta'lim metodikalar talabalarda faollik, ijodiy fikrlash, muammoni anglash va uni badiiy matn asosida tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ertak matni ustida ishlash esa nafaqat didaktik vosita, balki shaxsiy kamolotga yo'naltirilgan ta'limiy resurs sifatida talqin etilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, maqolada ertak matni ustida ishlashning zamonaviy yondashuvlarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash, hamda talabalar bilan amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy matn — bu muallifning obrazli ifoda vositalari orqali hayotiy haqiqatni, estetik g'oyalarni yetkazuvchi badiiy til birliklaridan tuzilgan matndir. U nafaqat ma'lumot beradi, balki kitobxon tafakkurini, tuyg'usini, ma'naviy olamini shakllantiradi.

Badiiy matnning o'ziga xosliklari haqida bir qator o'zbek adabiyotshunoslari fikr bildirgan. Jumladan, filologiya fanlari doktori M.M. Yuldashev o'zining "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli monografiyasida badiiy matnni "estetik butunlik sifatidagi hodisa" sifatida izohlaydi va uning til vositalari orqali badiiy-estetik funksiyalarni amalga oshirish

mexanizmini yoritadi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotidagi namunaviy matnlar misolida estetik butunlik konsepsiyasi nazariy jihatdan chuqur asoslanadi. Bu ish boshlang'ich va oliy ta'limda badiiy matnni tahlil qilish metodikasi uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[2].

Pedagogika fanlari nomzodi A.D. Boltaeva o'zining dissertatsiyasida badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, asar qahramonlariga munosabat bildirish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish usullarini o'rgangan. Ushbu ishda o'quvchilarda badiiy matn orqali tanqidiy tafakkurni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Boltaeva ta'lim jarayonida o'quvchilarning obrazlar haqidagi subyektiv bahosini mustahkamlovchi muhitni shakllantirishga urg'u beradi. Ular orqali fikr bildirish, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish va ijtimoiy-ma'naviy pozitsiyani shakllantirish yondashuvi taklif etiladi. Metodlar ichida "matnli rol o'yinlari", "muallif niyatini topish", "voqealarni qayta tuzish" kabi interfaol texnikalar tavsiya etilgan[3].

Shuningdek, respublikamiz olimlarining asarlarini tahlil qilsak:

Zunnunov A. "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli kitobida Asarda adabiy matn, xususan ertak ustida ishlashda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar (og'zaki savol-javob, ifodali o'qish, tahliliy suhbat, ijodiy topshiriqlar) tizimli bayon qilingan. Ertak orqali bolalarda estetik zavq, obrazli tafakkur va axloqiy mezonlar shakllanishi ilmiy asoslangan[4].

Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X. va boshqa olimlarining "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli darsligida dars jarayonida ertak janriga xos matnlarni ishlashda tayyorlov bosqichi, idrok, tahlil, umumlashtirish va ijodiy bosqichlar batafsil bayon qilingan. Ular zamonaviy metodlarni (klaster, "fikrlar xaritasi", rolli o'yinlar) tavsiya qiladi[5].

Ertak nazariyasi va uning tahliliga oid qarashlar.

Ertak janri xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega turlaridan biridir. Ertaklarda aks ettirilgan syujetlar, qahramonlar va fantastik voqealar orqali insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, jasorat kabi gumanistik qadriyatlar targ'ib etiladi.

Ertaklar nazariyasi bo'yicha jahonga mashhur rus olimi V.Y. Proppning "Morfologiya skazki" asari (1928)

Tadqiqot usullari

№	Usul nomi	Maqsad
1	Kuzatuv	Talabalar faoliyatini, ulardagi metodik yondashuvlarni qo'llash ko'nikmasini o'rganish
2	Suhbat	Mashg'ulot yakunida talabalar bilan tahliliy suhbat
3	Tajriba	"Matn ustida ishlash metodikasi" fanining ertak matniga oid mashg'ulotida yangi uslublarni sinovdan o'tkazish
4	Tahlil	Talabalarning yozma va og'zaki ishlari asosida ular tomonidan ertakni idrok etish bosqichlarini aniqlash
5	So'rovnoma	Talabalarning fikrlari asosida metodik yondashuvlarning samaradorligini baholash

Tadqiqot dizayni

Tadqiqot 2025-yil bahor semestri davomida o'tkazildi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishining 3-bosqich talabalari bilan "Matn ustida ishlash metodikasi" fanidan tajriba dars mashg'ulotlari tashkil etildi.

№	Metod nomi	Maqsadi	Qisqacha tavsifi
1	Klaster metodi	Obraz, voqea, g'oya va tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni vizual ochib berish	O'quvchi ertakdagi asosiy tushunchalarni aniqlaydi va ularni grafik tarzda mantiqiy bog'laydi
2	Keys-stadi (vaziyatli tahlil)	Qaror qabul qilish, qahramon xatti-harakatlarini baholash	Ertakdagi bir epizod asosida muammoni tahlil qilish va yechim taklif etish
3	Metakognitiv strategiyalar	Mustaqil fikrlash va refleksiya	O'quvchi "nima bilaman?", "nima bildim?", "yana nima bilmoqchiman?" kabi savollar orqali o'z o'qish jarayonini nazorat qiladi
4	Rol o'yinlari (dramalashtirish)	Obrazli tafakkur va nutq faoliyatini rivojlantirish	O'quvchilar ertakdagi personajlar rolini ijro etish orqali matnni chuqurroq anglaydilar
5	Sinkveyn (besh qatorlik she'r)	Matn asosida umumlashtirish, tuyg'u va g'oyani ifodalash	Ertak haqida 5 qatorli she'r tuzish: 1-sub'yekt, 2-sifat, 3-harakat, 4-tuyg'u, 5-yakun

Etika va ishonchlilik

Tadqiqotda barcha talabalar ixtiyoriy asosda ishtirok etdi, kuzatuv va baholash natijalari maxfiy saqlanadi. O'quv

muhim manba hisoblanadi. Unda u ertakni strukturaviy jihatdan 31 funksiyaga ajratadi va ular asosida barcha ertaklar syujet jihatdan umumiy tuzilishga ega ekanligini isbotlaydi. Har bir ertakda "qahramon uyidan chiqib ketadi", "sinovga duch keladi", "yordamchi topadi", "muammo yechiladi" kabi bosqichlar mavjud. Bu strukturaviy model butun dunyo folklorshunosligida keng tan olingan va bugungi didaktik ertak tahlilida asosiy usullardan biri hisoblanadi[6].

Adabiyotshunos Jack Zipes zamonaviy ertakshunoslikning eng yirik nazariyotchilaridan biridir. U ertaklarni faqat estetik vosita emas, balki jamiyatdagi ideologik va tarbiyaviy g'oyalarni yetkazuvchi ijtimoiy bosqichlarga ega sifatida ko'radi. Uning fikricha, zamonaviy ta'limda ertaklar orqali nafaqat axloqiy tushunchalar balki, gender, tenglik, adolat, shaxsiy tanlov erkinligi kabi ijtimoiy mavzular ham tahlil qilinishi kerak[7].

Gelberg bolalar adabiyotida ertaklarning roli haqida shunday deydi: "Ertak bolaning dunyoqarashi uchun ko'zgudir — u voqealar sababini izlaydi, hissiy reaksiya beradi, axloqiy baho beradi". Unga ko'ra, ertaklar orqali bola ijtimoiy hayot bilan o'zini parallel qo'yishni o'rganadi. Bu yondashuv ertak matnini darsda tahlil qilishda psixologik jihatlarini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi[8].

A. V. Barannikova "Metodika prepodavaniya literatury v nachalnoy shkole" nomli ilmiy ishida ertak matnining "ma'naviy-ta'siriy kuchi" haqida fikr yuritiladi. Muallif bola qalbiga yo'l topishda qahramonlar hayotiy pozitsiyasini muhokama qilish usullarini tavsiya qiladi[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda asosiy maqsad — zamonaviy metodik yondashuvlar asosida ertak matni ustida ishlash samaradorligini o'rganish va ularni talabalar bilan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagilar tashkil etadi:

Tadqiqot yondashuvi. Tadqiqotda induktiv yondashuv asosida kuzatuv, tahlil va tajriba o'tkazildi. Kvalitativ (sifat tahlili) asosida talabalar bilan olib borilgan mashg'ulotlar, ularning ishtiroki va o'zlashtirish darajasi baholandi.

Ertak matni ustida ishlashda qo'llaniladigan zamonaviy interfaol metodlar

mashg'ulotlari bevosita o'qituvchining ruxsati asosida kuzatildi. Metodologiya natijalari isbotlanuvchanlik (validity)

va takrorlanuvchanlik (reliability) mezonlariga mos ravishda asoslangan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot Urganch davlat pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 3-bosqich talabalari bilan "Matn ustida ishlash metodikasi" fani doirasida olib borildi. Mashg'ulot davomida ertak matnlari asosida zamonaviy interfaol metodlar sinovdan o'tkazildi. Jumladan: klaster, keys-stadi, rol o'yinlari, metakognitiv strategiyalar, insert, sinkveyn kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil jarayonida mashg'ulot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

Tayyorlov bosqichi. Talabalarga dastlabki savollar yordamida ertak to'g'risidagi tushunchalari aniqlanib, bilim darajasi diagnostikasi o'tkazildi. So'rovnoma asosida aniqlanishicha, talabalar ertaklarni ko'proq "bolalar uchun oddiy o'yinbozlik" deb qabul qilgan, ulardagi tarbiyaviy qatlamni chuqur anglamaganlar. Bu bosqichdan keyin metodik materiallar tanlab, tahlil uchun "Ona qarzi", "Bir kunda uch marta hosil bergan daraxt", "Bo'ri bilan echki" kabi xalq ertaklari ishlatildi.

Amaliy bosqich.

a) Klaster metodi. Talabalar "Bir kunda uch marta hosil bergan daraxt" ertagi asosida obrazlar o'rtasidagi

Yakuniy bosqich (diagnostika natijalari)

Mashg'ulot yakunida talabalar bilan yozma va og'zaki fikr almashish, reflektiv suhbat, mini-so'rovnoma o'tkazildi. Natijalar quyidagicha:

Ko'nikma turi	Dastlabki daraja (%)	Yakuniy daraja (%)	O'sish
Matnni tahlil qilish	48%	82%	+34%
Qahramon bahosini berish	42%	77%	+35%
Nutqiy ifoda (og'zaki)	50%	85%	+35%
Mustaqil fikr bildirishi	45%	80%	+35%

Shuningdek, talabalar so'rovnoma natijasida 85% ishtirokchi bu mashg'ulotlarda ertakning tarbiyaviy va metodik ahamiyatini chuqurroq anglaganini bildirgan.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, tajribaviy mashg'ulotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, zamonaviy interfaol metodlar orqali ertak matni ustida ishlash: talabalarda matnga "Ona qarzi" ertagi asosida PIRLS uslubidagi topshiriqlar

1.1. Rafiq dadasining nima qilayotganini ko'rib qiziqdi. Dadasi nima deb javob berdi?

A) She'r yozayotganini

B) Hisobot

to'ldirayotganini

C) Xat yozayotganini D) Pul sanayotganini

1.2. "Hisobot" so'zi matnda qanday tushuntirilgan?

A) Yozuvchi yozadigan asar

B) Bolaning

xat yozishi

C) Davlatga qilgan ishlar haqida yozilgan hujjat D) Pul olish uchun yoziladigan so'rovnoma

2.1. Rafiq nega onasidan pul talab qilishga qaror qildi?

☐

Namuna javob: Chunki u dadasi davlat uchun ish qilib, pul olishini ko'rdi va o'zining uyda qilgan ishlari uchun ham onasidan pul olish kerak deb o'yladi.

2.2. Oyisi Rafiqqa nima uchun 0 rupiya deb yozilgan "qarz hisobotini" yozib berdi?

A) Chunki pul yo'q edi

B) Chunki Rafiq pulga loyiq emas edi

C) Chunki ona muhabbati pul bilan o'lchanmaydi D) Chunki Rafiq maktabga bormagan edi

3.1. Sizningcha, Rafiqning qilgan ishida noto'g'ri jihatlar bormi? Fikringizni asoslang.

☐

3.2. Ertak sizga qanday saboq berdi?

☐

4.1. Rafiq o'zini qanday tutishi kerak edi? O'zingizdan misol bilan tushuntiring.

4.2. "Ona qarzi" mavzusida 3-5 gapdan iborat kichik voqea yozing.

4.3. Siz ham onangizga "Hisobot" yozmoqchi bo'lsangiz, unda nimalar yozardingiz?

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bunday topshiriqlar orqali badiiy matnni o'qish nafaqat bilim o'zlashtirish, balki o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional tarbiyasida ham muhim omilga aylanadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada badiiy matn, xususan xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lgan ertaklar

munosabatni klasterda tasvirlashdi. Tahlil jarayonida ularning g'oya va syujetni tahlil qilish qobiliyati keskin faollashgani kuzatildi. Ko'pchilik talaba oxirida xulosa chiqarish, ifodali gap tuzish, mantiqiy fikr yuritishda ilgari sezilmagan faollikni namoyon etdi.

b) Keys-stadi. "Bo'ri bilan echki" ertagidagi vaziyat asosida muhokama tashkil qilindi: "Echkining bolalarini qoldirishi to'g'ri qarormi?" Talabalar bu orqali qahramon harakati, oqibat va saboqni tahlil qilishga o'rgandilar. Ular mustaqil fikr bildirish, dahlsizlik va muhofaza kabi tushunchalarni muhokama qilishdi.

c) Rol o'yinlari. Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, "Ona qarzi" ertagidagi personajlarni jonlantirdilar. Mashg'ulot jonli tarzda tashkil etildi. Natijada, talabalar nutq madaniyati, obrazli ifoda, hissiy ta'sir ko'nikmalarini faol qo'lladi. Rol ijrosi ularning ertak mazmunini shunchaki o'qish emas, balki idrok etish va tushunishga olib kelganini ko'rsatdi.

d) Metakognitiv strategiyalar. O'quvchilar "Nima bilaman?", "Nima tushundim?", "Endi nima qilaman?" kabi savollarga yozma tarzda javob berishdi. Bu yondashuv orqali ularda o'z fikrini rejalashtirish, tushunganini ifodalash, refleksiya qilish kompetensiyasi rivojlandi.

chuqur kirib borish, tahliliy fikrlash, nutqiy ifodalanish darajasini oshiradi; o'qituvchining roli faollashtiruvchi, yo'naltiruvchi pozitsiyaga o'tadi; o'rgatish jarayoni passiv emas, faol ishtirokga asoslanadi.

Quyida "Ona qarzi" ertagi asosida topshiriqlar namunasini e'tiboringizga havola etaman.

ustida zamonaviy yondashuvlar asosida ishlashning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari tahlil qilindi.

O'quvchilarning badiiy matnni chuqur tushunishi, matndagi muhim detallarni ajratib olishi, shaxsiy munosabat bildira olishi – bu kabi yondashuvlar o'quv jarayonida interfaol metodlar (klaster, keys-stadi, insert, sinkveyn va boshqalar)ni joriy etishni talab qiladi. Ayniqsa, PIRLS uslubidagi topshiriqlar matn ustida ishlashda universal vosita bo'lib, xalqaro baholash mezonlariga mos fikrlashni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2020 yil, 29-dekabr.
2. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. DSc diss. – Toshkent, 2009. – 314 b.
3. Boltaeva A.D. “Adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish” PhD diss. – Toshkent, 2020. – 157b.
4. Zunnunov A. va boshq. “Adabiyot o'qitish metodikasi” – Toshkent: “O'qituvchi”, 1992. – 160 b.
5. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X. va boshq. “Ona tili o'qitish metodikasi” – Toshkent: “Noshir”, 2009. – 352 b.
6. Пропп В.Я. Морфология сказки. – Л.: Наука, 1928. 192 s.
7. Zipes, J. Fairy Tales and the Art of Subversion. – New York: Routledge, 2006. – 268 p.
8. Gelberg, H.J. Children's Literature Today. – Munich: Beltz & Gelberg, 2003. – 232 p.
9. Баранникова А.В.. Методика преподавания литературы в начальной школе. – М.: Академкнига, 2004. – 224 с.
10. Toirova M.E. O'qish savodxonligi: 4-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: Yangi asr avlodi, 2022.